

The difference between artificial intelligence and the future role of human translators.

Norqulova Obida Ulug'bek qizi

1-Grade student, "Silk road" international university of tourism and cultural heritage.

**Abstract:** this article discuss modern translation technologies – artificial intelligence. The differences between artificial intelligence and human translation, their role and capabilities are analyzed in depth. At the same time, the future and competencies of the human translator profession are discussed against the background of the development of automatic translation systems. The article also argues that human translator play pivotal role in the future, despite the convenience and speed of artificial intelligence and they cannot perceive some subtleties of meaning and “imperfect” in creative approaches.

**Key words:** artificial intelligence, cross – cultural communication, AI, human translation, cultural nuances, translation quality.

### **Kirish.**

So'nggi yillarda kundan – kunga jadal rivojlanayotgan asrimizda kundalik hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Tibbiyot, sanoat, ta'lim va axborot texnologiyalari bilan bir qatorda tarjima sohasiga ham zamonaviy texnologiyalar - AI kirib keldi. Ayniqsa, ingliz tilidan va ingliz tiliga tarjima qilishda Google Translate, DeepL va ChatGPT kabi sun'iy intellekt turlari keng qo'llanilmoqda. Shu kabi mashina tarjimonlar inson tarjimonlardan ko'ra tez va katta hajmdagi mantlarni qayta ishlashga ancha qulayligi sababli ko'p foydalanilsada, inson tarjimalari hissiyotlilik, nozik ma'nodagi mantlarni maromiga yetkazib tarjima qila olish bo'yicha robotlardan ustun turadi.

### **Mashina tarjimonlarning afzalliklari va qulayliklari:**

Mashina tarjimasi dastlab 1950- yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da bugungi rivojlangan texnologiyalar asriga kelib sun'iy intellekt asosida neyrotarjima tizimlari orqali sezilarli yuksalishga erishildi<sup>1</sup>. Hech kimga sir emaski, sun'iy intellekt tarjima uchun juda qulay va tezkorligi tufayli ko'plab mutaxassislar uni afzal biladi. Darhaqiqat, SI (sun'iy intellekt) insonlardan farqli o'laroq doimiy, uzluksiz ishlay oladi. Inson tarjimonlar bir kunda tarjima uchun o'rtacha to'rt yoki besh soat sarflashi mumkin. Ammo AI (artificial intelligence) tarjimonlar orqali har qancha matnni xohlagan vaqtda, har qanday holatda tez va oson tarjima qilsa bo'ladi. Bundan tashqari mashina tarjimonlar iqtisodiy jihatdan ancha arzon, hattoki, ba'zi SI lar mutlaqo tekin. Biroq shu kabi qulayliklariga qaramay

<sup>1</sup> Koehn, P. (2010 p.45-46). Statistical Machine Translation. Cambridge University Press.

mashina tarjimonlarning bir nechta kamchiliklari ham yo'q emas. Birinchidan ular so'zlarni so'zma – so'z tarjima qiladi, bu esa ingliz tilida madaniy so'zlarni, iboralarni tarjima qilayotganda qiyinchilik tug'diradi. Misol uchun ingliz tilida “a dime a dozen” so'zini AI “o'nlab tiyin” deb tarjima qiladi. Ammo u o'zbek tiliga “keng tarqalgan, ommabop” ma'nolarida keladi (albatta, kontekstga qarab). Tarjima qilinayotgan maqolada yoki asarlarda shu kabi ibora yo maqollar keladigan bo'lsa, tabbiyki, sun'iy intellekt buni insonlardek to'g'ri tarjima qila olmaydi. Inson tarjimonlar esa bu ustida izlanishlar olib borib, o'zbek tilida unga mos keladigan ekvivalentini topadi. Va, albatta, tarjima faqat lug'aviy ekvivalentlik emas, balki kontekstual, stilistik va madaniy moslikni ham ta'minlashi kerak. Shu jihatdan inson tarjimasi bugungi kunga kelib ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

### **Inson tarjimonlarni sun'iy intellekt bilan chog'ishtirish.**

AI turlari qanchalik ommabop va qulay bo'lishiga qaramasdan inson tarjimonlar ham matnga madaniy moslashuvda, tanqidiy fikrlashda, kontekstual tahlilda muhim rol o'ynaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsam madaniy so'zlarga boy asarlarni sun'iy intellektda tarjima qilib bo'lmaydi, chunki madaniy jihatdan so'zlarni o'rganib tarjima qilish kerak. Hamda bunday o'rganishlar faqatgina insonlarga xosdir. Sun'iy intellekt ancha izlanib madaniy tarjimoni topsada, tarjima qilinayotgan tilga xos ekvivalent topolmaydi. Masalan

English: “I'm ok”

Inson tarjimasi: “Xudoga shukr, yaxshiman” (matnga mazmuniga qarab)

SI tarjimasi: “Men yaxshi”

Ko'rib turganingizdek, sun'iy intellekt gapni so'zma so'z (word to word) tarjima qilgan, biroq inson tarjimonlar madaniyatdan, holatdan kelib chiqib o'quvchiga kuchliroq emotsiya yetkazish maqsadida matn mazmuniga mos so'zlar bilan tarjima qilgan. Qo'shimcha qilganda, inson tarjimalarida stilistik aniqlik, professional va axloqiy mas'uliyat yaqqol aks etadi. Bunday hislat esa robotlarda mavjud emas, ular yuqoriga aytilgandek so'zlarni lug'atdagi birinchi ma'nosi bilan tarjima qiladi. Shu tufayli, muhim bo'lgan diplomatik, huquqiy matnlar va badiiy asarni tarjima qilishda insoniy tarjimonlar kerak.

### **Insoniy tarjimonlarning kelajakdagi o'rni va istiqbollari.**

Yuqorida aytilgan fikrlarga tayanib shuni ayta olamanki, kelajakda tarjima sohasini to'liq texnologiyalar egallab olmaydi, balki inson va AI asosida yanada rivojlanadi. inson tarjimonlar, aksincha, sun'iy intellektlar ustidan nazorat qilib, terminologiya bilan ishlashda, muharrirlik va tahliliy fikrlashda ulardan ustunlik qiladilar. Chunki tarjima qilayotgan matnda har bir madaniyatga xos terminlarni o'z holicha, ekvivalent bilan

tarjima qilishni insonlay eplay oladi. Bundan tashqari badiiy asarlarni tarjima qilayotganda tahliliy fikrlash ham muhim o'rin tutadi (asar qahramoni bir so'z bilan nima demoqchi? Yoki qahramon aytgan gapni qanday qilib oson va tushunarli qilib o'quvchiga yetkazish uchun qayday usullardan foydalanish kerak?). Bularning barchasi insonlar zimmasidadir.

### **Xulosa.**

Xulosa qilganda robot tarjimonlar insonlarga qaraganda tezkor va hamyonbop bo'lishiga qaramasdan ular ko'proq standart va to'g'ridan – to'g'ri tarjima qiladi va bu esa yuqorida ta'kidlanganidek badiiy asardagi madaniy nutqni yoki muallifning niyatini o'quvchiga to'laqonli yetkazib berishda xatoliklar yuzaga keltiradi. Insonlar esa tilda nafaqat emotsional ohangni tushunadi balki ijtimoiy va milliy hususiyatlarni ham chuqur anglaydi. Ayniqsa, diplomatik va badiiy publisistik matnlarni tarjima qilishda inson omilining ahamiyati katta bo'lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda inson tarjimasi tajriba, mehnat va ko'p vaqt talab qilishi sababli ayrim hollarda cheklangan bo'lishi mumkin.

### **References:**

1. Koponen Maarit (2016 p.3).Helsinki, University of Helsinki
2. O'Hagan, Minato. The Routledge Thandbook of Translation and Technology.(2020)
3. Cronin, Michael. Translation in Digital Age.(2013)
4. Venuti,L.(2012) . The Translation Sludies Reader Routledge.
5. Basnett,S. (2014). Translation Studies Routladge.
6. Floridi, Luciano el Al,(2018)
7. Pym, Anthony. Exploring Translation Theories (2014)
8. UNESCO – The Role of AI in Translation.<https://unesco.org/ai-translation>  
(sun'iy intellekt tarjimada ta'lim va madaniyat sohalarida)